



Jizzax viloyatida demografik holat

2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-iyul holatiga Jizzax viloyatining doimiy aholisi soni **1 551,7** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **2,0** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **18,0** ming nafarni, vafot etganlar **3,0** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **15,0** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **11** kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **71** kishini, qayd etilgan nikohlar **3,6** mingtani, nikohdan ajralishlar **0,9** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

1 551,7 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

18,0 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

3,0 *ming kishi*

Xorijdan ko'chib kelganlar

11 *kishi*

Xorijga ko'chib ketganlar

71 *kishi*

Nikohlar soni

3,6 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

0,9 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Jizzax viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra **1 551,7** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **29,8** ming kishiga yoki **2,0** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **729,8** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **47,0** %), qishloq joylarda esa **821,9** ming kishi (**53,0** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **768,5** ming kishini (**49,5** %), erkaklar esa **783,2** ming kishini (**50,5** %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati	1 521,9	1 551,7	102,0
Jizzax shaxri	197,8	201,6	101,9
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	49,1	49,8	101,4
Baxmal	172,3	176,0	102,1
G'allaorol	188,7	192,3	101,9
SH.Rashidov	245,7	251,9	102,5
Do'stlik	70,4	71,3	101,3
Zomin	181,6	186,0	102,4
Zarbdor	95,6	97,3	101,8
Mirzacho'l	55,9	56,7	101,4
Zafarobod	54,1	54,9	101,5
Paxtakor	81,6	83,1	101,8
Forish	99,1	100,4	101,3
Yangiobod	30,0	30,4	101,3

Jizzax viloyatida 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **73,2** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,4** kishiga ortgan (2024-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **71,8** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **18,0** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **23,5** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,6** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **3,0** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,0** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarish kuzatilmadi.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni **18,0** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **9,3** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,6** %), qiz bolalar soni **8,7** ming kishini (**48,4** %) va shahar joylarida **8,6** ming kishini (**47,7** %), qishloq joylarida **9,4** ming kishini (**52,3** %) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **3,0** ming kishini, shundan erkaklar **1,7** kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **58,0** %), ayollar **1,3** kishini (**42,0** %) va shahar joylarida **1,6** ming kishini (**52,4** %), qishloq joylarida **1,4** ming kishini (**47,6** %) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **3,6** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar- iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **81** birlikka ko'paygan.

Nikohdan ajralishlar soni **0,9** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar- iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **89** birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **3,6** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,9** birlikni (**51,6%**), qishloq joylarida **1,7** ming birlikni (**48,4%**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **0,9** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,5** ming birlikni (**56,6%**), qishloq joylarida **0,4** ming birlikni (**43,4%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **4 369** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **4 358** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **11** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **5 189** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **5 118** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **71** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Jizzax viloyati	4 369	4 358	11	5 189	5 118	71
Jizzax shaxri	1 006	1 006		956	952	4
tumanlar:						
Arnasoy	115	115		186	185	1
Baxmal	260	260		503	502	1
G'allaorol	210	210		466	466	0
SH.Rashidov	1 081	1 081		710	705	5
Do'stlik	186	186		345	337	8
Zomin	416	416		412	411	1
Zarbdor	204	204		281	281	0
Mirzacho'l	255	246	9	314	286	28
Zafarobod	134	134		219	219	0
Paxtakor	250	248	2	325	323	2
Forish	122	122		319	298	21
Yangiobod	130	130		153	153	0

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-go-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
R. Yusupova
72 221-51-19 (2570)

Manzil:
Jizzax viloyati
Jizzax sh. To'qimachilar 7 uy